

## INSON TASHQI KO‘RINISHIGA XOS SIFAT LEKSEMALARINING TADQIQI

**Altibayeva Malika Kuvandikovna**  
Alfraganus unversitetining magistri

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson tashqi ko‘rinishiga xos sifat leksemalarining o‘ziga xos xususiyatlari: morfologik, sintaktik, leksik-semantik, kompliment konsepti hamda pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Bundan sifat sifat leksemalari tavsiflandi hamda ma’no jihatdan tasniflandi.

**Kalit so‘zlar:** sifat leksemalar, semantika, ma’no turlari, kommunikativ, kognitiv, konsept, so‘z turkumlari, pragmatika.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются характеристики адъективных лексем, характерных для внешности человека: морфологические, синтаксические, лексико-семантические, комплементарное понятие и прагматические аспекты. Исходя из этого, были описаны и классифицированы по значению качественные лексемы.

**Ключевые слова:** качественные лексемы, семантика, типы значений, коммуникативные, когнитивные, концепт, словосочетания, прагматика.

### ABSTRACT

This article analyzes the characteristics of adjective lexemes specific to human appearance: morphological, syntactic, lexical-semantic, compliment concept and pragmatic aspects. From this, qualitative lexemes were described and classified in terms of meaning.

**Keywords:** quality lexemes, semantics, types of meaning, communicative, cognitive, concept, word groups, pragmatics.

Ma’lumki, har qanday fan tekshirish ob’yektidan qat’iy nazar predmet, narsa va hodisalarni o‘z maqsadidan kelib chiqib ilmiy asosda o‘rganadi, qiyoslaydi va tahlil qiladi. Tahlil jarayonida sifat so‘z turkumining funkcionalligi, ma’noviy xususiyatlari hamda o‘ziga xos leksik-semantik tomonlari ko‘zga tashlanadi. Chunki sifat leksemasidagi ma’no ottenkalari inson imidjini, shaxsga o‘ziga xosligini tushuntirishda, sifatlashda unga xos bo‘lgan fazilatlarini o‘rganishda, analiz qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, nutqiy faoliyatda insonning tashqi ko‘rinishi, xarakteri, axloqiy belgilarini leksik-semantik jihatdan voqelanishi aynan sifat leksemalari asosida aniqlanadi.

O‘zbek tilida sifat so‘z turkumi muhim o‘rinni egallaydi. Morfologik tizimida sifat o‘zining sermahsul qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Sifat so‘zlar strukturasi emotsionallik ham, ekspressivlik ham nutq jarayonida ta’sirchanlikni oshiruvchi element sanaladi. Sifat boshqa so‘z turkumlaridan leksik-semantik va grammatik jihatdan farq qiladi.

Tilshunos olim H.Tojmatov so‘z turkumlari orasida, sifat leksemalarni salmoqli ekani haqida, shuningdek, insonning belgi, xarakter, tashqi ko‘rinish xususiyatlarini tasvirlovchi vosita sifatida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. [5. 7b.].

O‘zbek tilidagi sifatning semantik maydonlari va ularning tematik bo‘linishlari, semantik strukturasi, uni ochish hamda boshqa xususiyatlari o‘zbek tilshunos olimlar tomonidan, jumladan, tilshunos olim M. Sodiqova tomonidan “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” monografiyasida sifatning umumiy xarakteri, uning semantik turlari, strukturasi, darajalari ilmiy asosda o‘rganilgan. [4. 5b.].

H.Tojmatov “Sifat sememasining reallashuvida konteks” nomzodlik dissertasiyasida o‘zbek tilida sifat leksemalarining semantik maydonlarini aniqlab, ularning integral sema bo‘yicha guruhlarini ko‘rsatgan. Semantik tarkibni ochish uchun misollardan foydalangan [5. 11 b. ].

Z. Pardayev “O‘zbek tilida sifatning semantik-uslubiy xususiyatlari” monografiyasida sifatning ma’noviy guruhlarini va ularning semantik uslubiy xususiyatlarini tadqiqatga tortgan [3. 3 b.].

Bizning fikrimizcha, sifat leksemalari otlarga birikib, predmetning rang-tusini ifodalash uchun xizmat qilib keladi. Chunki, ot turkumiga oid so‘zlar o‘z tabiatiga ko‘ra bir qator belgi-xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Rang bildiruvchi sifatning har biri o‘ziga xos semantik strukturasi, uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tilda sifat leksemasining uslubiy vosita sifatida funksional imkoniyatlari juda keng bo‘lib, u fikrni aniq, obrazli ifodalashga, ohangdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, H.Baymanov tomonidan inson xarakteriga xos sifat leksemalari boshqa tillar bilan qiyoslab, ilmiy tadqiqot jihatdan o‘rganishida sifat leksemasining uslubiy jihatdan nafaqat inson xarakteriga xosligi, balki inson tashqi ko‘rinishida ham faol ekanligi bizning yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Aytish o‘rinliki, sifat leksemalarning inson xarakteriga xos, rang tus, sememalarda reallashuvi hamda madaniyatlararo muloqatda tutgan o‘rni ilmiy tadqiqot jihatdan o‘rganilgan bo‘lsada, biroq inson tashqi ko‘rinishiga oid sifat leksemalarning

funksional-semantik, pragmatik xususiyatlari tizimli tatqiqot oby'ekti sifatida o'rganilmagan.

Sifatlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi. [2. 58 b.].

1) xarakter-xususiyat bildiruvchi: yarog'lik yigitlar, zolim beklar, qo'lansa so'z;  
2) holat bildiruvchi: kipriksiz ko'zlari, barra popoq, chin o'lik tusi, yosh xonimimiz, keksa otasi;

3) rang-tus bildiruvchi: oq popoq, bug'doyrang bir qirg'iz, ichi qoraroq, mosh-guruch soqollik;

4) shakl-ko'rinish bildiruvchi: qisiq ko'zlari, cho'ziqqina yuzi;

5) hajm-o'lchov bildiruvchi: katta salla, to'la yuzliq;

6) maza-ta'm bildiruvchi: shirin taom, nordon sharbat, sho'r bodring;

7) hid bildiruvchi: qo'lansa hid, muattar hid, sassiq hid;

8) vazn-og'irlik: og'ir yuk, yengil kiyimlar;

9) o'rin-paytga xosligi: dastlabki she'rlar, uydagi gap;

Shuningdek, inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalarning ham leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish tadqiqot ob'yektini yuzaga keltiradi.

Xarakter-xususiyat bildiradigan sifatlar: shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini bildiradi. Kishiga oid turli xususiyatlar, uning biror a'zosini sifatlash orqali ham beriladi: -O'zim ko'rmadim,-dedi Oftoboyim,- ammo ko'rguchilarning so'zlariga qaraganda o'xshashsiz ko'rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish...(A.Qodiriy)

Uning boshqalardan ajralib turadigan xususiyati, belgilari haqida ijobiy mazmun kasb etgan.

Holat bildiruvchi sifatlar predmetning doimiy va doimiy bo'lmagan belgisini bildiradi. Shunga ko'ra 2turli bo'ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: Oftoboyim qayg'uliroq, tusi bir oz siniqqansumon...(A.Qodiriy).

2) tabiiy holatni ifodalaydi: To'rdagi kichkina eshik ochilib ichkaridan to'la yuzlik, o'siq qoshliq, og'ir qarag'uvchi ko'zlik, siyrak soqol, o'rta bo'yliq, ustida kimxob to'n kiyib, beliga qilich osqan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi ko'rindi.(A.Q.)

Shaxsning rang-tusini bildiruvchi sifatlar: Og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutonosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.(A.Qodiriy). Bu o'rinda oq nisbiydir. Chunki kishi badani oqligi bilan oq tus o'rtasida ma'lum darajada farq bor.

Shakl-ko'rinish bildiradigan sifatlar predmetning ichki va tashqi shaklini ifodalab keladi. Ba'zilar holat bildiruvchi sifat tarzida keladi: Bu chol Hasanali otliq bo'lib, oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzliq, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik edi (A. Qodiriy).

Predmetning hajmini ifodalaydigan sifatlar ko'p jihatdan holat va shakl bildiruvchi sifatlarga o'xshaydi. Ammo, haqiqatda, oradan o'n besh-yigirma yil o'tib, siz ham katta yigit bo'lgansiz, umr-otilgan o'q emish (A. Qodiriy).

Shuningdek, xarakter-xususiyat, holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-o'lchov sifatlari inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalari funksional-semantik xususiyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tashqi ko'rinishini funksional tavsifi uning hayotiy faoliyatining namoyon bo'lish xususiyatlar bilan bo'g'liq bo'lgan holatlarga yuz ifodalari kiradi. Biror kishining yuz qismini tasvirlashda sifatning ma'no turlariga ajratib, kishi algaritmni tuzamiz. Shakli, holati, rangi, xususiyatlari insonni yuzi, ko'zi, sochi, yanog'i, burnida ifodalanishini ko'ramiz.

Yuz xususiyatlari quyidagi sifat semantikasi yordamida tasvirlash mumkin.

**Holatni ifodalovchi sifatlar:** g'amgin, soqolli, ajin yuz, sepkilli, shishik, badbashara, so'lg'in, so'niq, siniq, sovuq, cho'tir, yuviqsiz, istarali, horg'in;

**Shakl ifodasi:** cho'ziq, ingichka~nozlik, kvadrat, tuxumsimon, dumaloq, qiyshiq, lo'ppi yuz;

**Rang-tus ifodasi:** oq, mo'rt-qoramtir, oqsariq, bug'doyrang, og'riqli-sariq, mayin-og'riqli, rangpar.

Yuz tasvirida shakl, holat, rang-tus sifatlari faol qo'llaniladi.

Ko'zlar- ruhning derazasi, ularni tasvirlashni bilish foydali.

**Shakl ifodasi:** munchoq ko'zlar; munchoq nima? ot so'z turkumi, biroq ot bilan yonma-yon kelib ko'zning qanday shaklga ega ekanligi bildirib shartli sifat bo'lib kelgan., dumaloq, qisq, bodomsimon, charos ko'z, (uzum naviga o'xshatilgan) to'rt ko'z; to'rt necha? son so'z turkumi. Bunda ko'z so'zi bilan yonma-yon kelib shakily bo'yoqdorlik bergan.

**Holatni ifodasi:** o'tkir, jonli, xumor ko'z, o'lik ko'z, mayus, g'amgin;

**Rang-tus ifodasi:** och ko'k, yashil, qora, qo'y ko'z, moviy, ko'k ;

**Xususiyat ifodasi:** yukxalta~ko'z osti osilgan, qavariqli, shishli, ko'zi ojiz,

Ko'z tasvirida shakl, holat, rang-tus, xususiyat sifatlari orqali ifodalanadi

Burunni tasvirlashda shakl semantikasi faol qo'llanilgan: tekis, qirrali, kartoshka burun, qulupnay burun., uzun, grekcha burun, ilmoqsimon, arkali, tugmacha burun, to'g'ri, botiq, qiyshiq.

Demak, burun, faqat, shakl turida ifodalangan

Yanoqlar, shakli va rangiga e'tibor qaratamiz

**Shakl ifodasi:** to'lqinli, botiq; **rang-tuz ifodasi:** oq, qizg'ish, pushti; **holat ifodasi:** soqolsiz, ajinli, salqi;

Yuzning bir qismi og'izning ham semantik ifodasi bor;

**Shakl ifodasi:** katta, kichik;

**Holat ifodasi:** qattiq, tishsiz, kuchli;

Sochni tasvirlashdagi sifatlar; rangi, shakli, holat sifatlariga oidlari keltirilgan;  
**Shakl ifodasi:** uzun, qisqa, kalta;

**Rang-tus ifodasi:** sariq, qora, qizil, oq;

**Holat ifodasi:** siyrak, qalin, baquvvat, nimjon, jingalak, tekis, mayin;

Inson anatomik xususiyatlariga bosh, iyak, peshona, yuz kabi a'zolari va tana qismlari kiradi. Yuz odamning tashqi ko'rinishini tavsiflovchi "qopqoq" bo'lgani uchun ham alohida ifodalanadi.

Odamning og'zaki portretini yaratishda fan nuqtayi nazardan yondashiladi. Sud jarayonida jinoyatchini tasvirlari orqali ilmiy so'zlar ishlatmasdan, o'ziga tanish so'zlar yordamida tasvirlaydi. Ularni aniq tasviri ishni osonlashtiradi. Yuqoridagi leksik-semantik tahlil inson tashqi tasvirini aniqlashda ifodalanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilida inson tashqi ko'rinishiga xos sifat leksemalari bajaradigan vazifalariga ko'ra hamda morfologik, sintaktik, leksik-semantik, kompliment konsepti, pragmatik xususiyatlari insonni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi korinishga xos sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan, badiiy matnlarda o'rinni foydalanish nutqiy ta'sirchanlikni oshiradi, ma'noni kuchaytiradi, inson tasvirini aniqlashtirib ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Baymanov H.A. Inson xarakteriga xos sifat leksemalining funksional-semantik xususiyatlari (nemis va o'zbek tillari misolida)/ f.f.f. dok. (Phd)diss... avtoref. – Toshkent: 2020. – 23 b.
2. Hamrayeva M.A. Toshkent, 2007. 58-bet
3. Pardayeva Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. Monografiya. - Samarqand: 2007. 132 b
4. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilidagi sifat. Monografiya. Toshkent: Fan, 1974. 69 b.
5. Tojmatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst. F.f.n. diss... avtoref. – Toshkent: 2008. 142 b.